



## CHOR ROSSIIYASI MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA DAVLAT VA XUSUSIY NASHRLARDA PAXTA MASALASINI AKS ETTIRILISHI ANDIJON MISOLIDA

To`rayeva Mastura Ergashevna

Andijon Davlat Universiteti, tadqiqotchi

Ilmiy rahbar tarix : tarix fanlari nomzodi , dotsent E.Erkayev

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5579427>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> October 2021

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2021

Online: 15<sup>th</sup> October 2021

### KEY WORDS

*paxtachilik, matbuot, bosmaxona  
, paxta zavodlari*

### ABSTRACT

*Maqolada chor mustamlakachiligi davrida paxtachilik masalasining xususiy va davriy matbuotda yoritilishi, paxta xom ashyosining chor hukumatining iqtisodiyotidagi ahamiyati va davriy matbuotda bu voqelikning yoritilishi masalasi o`z aksini topgan*

Turkistonda o`z hukmronligini o`rnatgan chor Rossiyasining strategik maqsadlaridan biri o`lka iqtisodiyotini imperiya manfaatlariga bo`ysundirish va undan imperiya manfaatlari yo`lida foydalanish edi. Turkiston hududidan asosan xom ashyo bazasi sifatida foydalanishni o`z oldiga qo`ygan Rossiya imperiyasi o`lkada qishloq xo`jaligi, xususan paxtachilik sohasiga o`z manfaatlari nuqtainazaridan alohida e`tibor bergan. Matbuotda bu sohaga e`tibor qaralilib, o`lkadagi asosiy nashr bo`lgan „Turkestanckiy vedomosti“ gazetasining birinchi sonidayoq „Turkiston o`lkasida paxta yetishtirilishi haqida“ nomli maqola chop etilgan. Bu gazetada nashr qilingan agronom M. Brodovckiy tomonidan tayyorlangan ma`lumot va ma`ruzalarida paxtaning ishlab chiqaruvchilar va rus to`qimachilik fabrikalari uchun ahamiyatini alohida ta`kidlaganligini ko`rishimiz mumkin.

„Turkestanckiy vedomosti“ gazetasi sahifalarida Amerika paxta navini o`stirish bo`yicha amalga oshirilgan ishlar bo`yicha ma`lumotlar berib borilgan. Amerika paxta navining afzalligi haqida so`z borgan maqolada bu paxtaning hosildorligi, yuqoriligi, terilishi osonligi, bitta paxta ko`chati 60-120 ta chanoq tugishi, mahalliy navlar esa bor-yo`g`i 20-30 chanoq tugishi aytib o`tiladi. „Sadoi Turkiston“ gazetasida ham yerning unumdorligini oshirish masalalariga bag`ishlangan maqolalardan birida „yerning o`stirish quvvatini oshirish uchun ziroatchilar o`z sohasi bo`yicha bilimlarini oshirish kerak“ deya ta`kidlashadi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ham Farg`ona vodiysida jumladan, Andijon uyezdi iqtisodiyotining yetakchi sohasi paxtachilik edi. Andijonning qulay geografik joylashuvi va iqlim sharoiti natijasi o`laroq qishloq xo`jaligining rivojlanishi jihatidan Turkiston o`lkasida yetakchi o`rinni egallagan. XIX asrning 80-yillarida



Turkiston o'lkasida o'rta hisobda har 100 desyatina yerdan 2,06 desyatini dehqonchilik uchun foydalanilgan bo'lsa, Andijon uyezdida bu ko'rsatkich 8,96 desyatini tashkil etar edi. Demak, Andijonda xo'jalikda ishlatiladigan yerlarning salmog'i Turkistonning boshqa viloyatlariga nisbatan ancha yuqori bo'lgan.

Chor mustamlaka ma'muriyati Turkistonni xom-ashyo bazasiga aylantirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edi. Ayniqsa, rivojlanib borayotgan rus to'qimachilik sanoatini paxta xom ashyosi bilan ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda edi. Shu boisdan mustamlakachi ma'murlar 1875-1880 yillar davomida Amerikada «Sean-Island», «Upland» nomli paxta navlarini Turkistonga keltiradi va urug'ini ma'lum qismini dehqonlarga bo'lib beradi. Bu esa keying davrlarda vodiya haddan tashqari paxta ekin maydonlarining kengayishiga olib keladi. O'sha paytdagi matbuot sahifalaridan joy olgan ayrim tahliliy materiallarda o'sha davrda vodiya jumladan, Andijonda paxtachilikning rivojlanishi qanday salbiy oqibatlariga olib kelganligi o'z aksini topgan. «Turkestanskiye vedomosti» gazetasining 1909 yilgi № 2,198,205,207-sonlarida e'lon qilingan maqolalarda vodiya paxta yakka hokimligi vujudga kelganligi ochiq oydin qayd etiladi.

Unda qayd etilishicha, Farg'ona vodiysining uchdan bir qism yeriga paxta ekilayotganligi e'tirof etilib, jumladan Andijon uyezdida undan ham ko'p, sug'oriladigan yerlarning qariyb teng yarmida paxta yetishtirilayotganligi yozilgan. Shu tariqa paxta yakka hokimligining vujudga kelishi bilan bog'liq

bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatligi qishloq ahlining yanada qashshoqlashuviga olib kelgan edi. Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlar mustamlakachilik davrida paxtachilik sohasida yuz bergan o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Bunday o'zgarishlardan biri paxtaning serhosil navlarini joriy qilinishi bilan bog'liqdir. Rossiya istilosiga qadar bu yerda paxtaning Jaydari, Malla g'o'za, So'zana kabi bir necha mahalliy navlarigina ma'lum bo'lib, bu navlar kech ochilishi bilan birga hosildorligi va sifati ham yuqori emas edi. 1875-1880 yillarda Amerikadan Sean-island, Upland nomli paxta navlarini Turkistonga keltirildi va urug'ning ma'lum qismi dehqonlarga bo'lib berildi. Namangan uyezdining Chust qishlog'ida birinchilardan bo'lib bu tajriba qo'llanildi. Paxtaning Amerika navlari Turkiston sharoitida yaxshi samara berdi. Shu boisdan paxtaning serhosil va tezpishar Amerika navlari mahalliy navlarni siqib chiqara boshladi. Masalan, 1885 yilda o'lkada paxtaning bu turi atigi 300 desyatina yerga ekilgan bo'lsa, 1900 yilga kelib umumiy paxta maydonlarining 60 foizini Amerika navi egalladi.

1909 yilga kelib ushbu nav deyarli butun paxta maydonlarini egallab oldi. Paxta maydonlarining faqatgina 10 foizdan ozrog'iga mahalliy navlar ekildi. Buning natijasida 1907 yilga kelib Turkiston general gubernatorligi hududida yetishtirilgan 9,8 million pud paxta tolasini 8,1 million pud paxtaning Amerika navlaridan olingan edi. Turkestanskiy vedomosti sahifalarida qayd etilishicha, Andijon uyezdida Amerika paxta navini iqlimlashtirish bilan dastlab Yaroslavl katta manifaktura shirkati shug'ullangan. Shu shirkat Andijon uyezdida



Aleksandrovskiy Xutor nomidagi paxta plantatsiyasini tashkil qiladi .Bu Norin va Qoradaryo oralig`ida joylashgan plantatsiya asosan Amerikaning» Upland «navlarini iqlimlashtirish bilan shug`ullangan.Uning umumiy ekin maydoni 737 desyatina yerni o`z ichiga olib, dastlab 240 desyatina ,so`ngra 300-500 desyatina yerda paxta y etishtirildi.

Ekin maydonining qolgan qismida bug`doy,beda va boshqa o`simliklar ekilgan.Plantasiyada «Upland»ning quyidagi navlari bo`yicha tajriba olib borilgan.

1.»Yangi Orlean»navining sifati yaxshi bo`lsada ,kechroq yetilgan.

2. Ko`k»Chudo»ning tolasi uzun,yupqa va mayin bo`lib ,chanog`I va chigiti yirik,ertaroq pishgan.

3.Malla chigitining rangi sarg`ish lekin tolasi boshqa navlarga nisbatan sifatsiz edi.Ammo erta pishib ,hosildorligi yuqori bo`lgan,chigiti tufayli tola yaxshi chiqqan.

4.Qora chigit Misr paxtasi navi bilan chatishtirishdan olingan.Bu nav erta yetilib ,yaxshi tola bergan.Ammo hosildorligi past edi.

Yildan yilga Andijon uyezdida paxta maydonlari kengaytirilib borildi. 1892 yilda Andijon uyezdida 32842 desyatina yerga paxtaning Amerika navi ekilgan bo`lsa, 3505 desyatina yerga mahalliy paxta navi ekilib, paxtaning Amerika navidan 1313680 pud paxta hosili olingan bo`lsa mahalliy paxta navidan 105150 pud paxta hosili olingan. «Turkestanskiye vedomosti» gazetasida ta`kidlanishicha ,1903 yil Farg`ona viloyatining Marg`ilon va Andijon uyezdlarida paxta hosili yuqori bo`lgan.Bunga sabab ob-havoning yaxshi kelishi bo`lib,ikkinchi terim paxtasi ham birinchi navga qabul qilingan.Paxtaning

xarid narxi ham ko`tarilgan.1 pud paxtaning narxi 4 so`m 25 tiyinga baholandi.Bunday holat Farg`ona viloyatida avval kuzatilmagan.

Paxtaning narxi oshishiga sabab bo`lgan omillar quyidagilar:

1.Amerikadan paxta mahsulotlarini kam miqdorda olib kelinishi

2.Rossiya to`qimachilik korxonalarining paxta mahsulotiga bo`lgan talabining oshib borishi

Paxta narxining ko`tarilishi zilziladan jabr ko`rgan Andijonliklar uchun qo`l keldi.Lekin paxtaning narxini ko`tarilishi kamdan-kam holatda sodir bo`lar edi. surunkali ekilishi paxtachilik ziyon keltirar edi.Shuning uchun ma`muriyat vakillari matbuotda chiqishlar qilib ,chorvachilikni rivojlantirishga va go`ngni ko`paytirishga da`vat qilindi. Ayni paytda almashlab ekishga e`tibor qaratildi. 1905 yilda Andijonda 3394945pud paxta yetishtiriladi. Biroq paxtani yetishtiruvchi dehqonning ahvoli og`ir bo`lgan.Andijon uyezdida shunday qishloqlar va volostlar bo`lganki,ekin maydonlarining80-90 foiziga paxta ekilishi sabab ularda oziq- ovqat va yem xashak tanqisligi avj olgan.Andijon uyezdida 1914yil paxta maydoni 94332 desyatini tashkil etgan bo`lsa, 1915 yilga kelib 101919 desyatini tashkil etgan.Demak,Andijon uyezdi paxta maydonlari kattaligi jihatidan Farg`ona viloyatida peshqadam edi. Farg`ona viloyati jumladan Andijon uyezdi ham Possiya imperiyasining paxtachilik markazibo`lgan.Farg`ona viloyatida sugoriladigan umumiy yer maydoni (652035) desyatining 1909 yilda paxta ekiladigan joyi 208014 desyatina bo`lgan.

Mana shu hududda yig`iladigan paxta 17 million pudni tashkil qilgan 1910



yilda 208203 desyatina yerga paxta ekilgan. Bu Farg'ona vodiysidagi jami sug'oriladigan yerlarning 2/1 qismini tashkil qiladi. Viloyatning ba'zi hududlarida sug'oriladigan yerlarni 90 foiziga paxta ekilgan. Umumiy paxta ishlab chiqarishda Turkistonning uch viloyatida (Buxoro va Xivadan tashqari) Farg'ona viloyatida paxta tolasining 85 foizini yetkazib bergan. Paxtachilikning bunday rivojlanishi viloyatdagi qishloq xo'jaligi hayoti tarzini shu tarmoqdagi yutuqlar bilan bog'lanib qolishiga olib keldi.

Shu bilan birga Farg'ona viloyati savdo markazi hisoblangan. Barcha sanoat, savdo va bank muassasalari faoliyat yuritgan. Kreditning barcha turlari - savdo, sanoat, shaxsiy kreditlar aynan Farg'ona viloyatiga berilgan. Kichik paxta ishlab chiqaruvchilar uchun kichik kreditlar ko'proq ahamiyatli bo'lib, xususiy shaxslardan yoki yirik savdo firmalaridan olinib, yillik foiz 12-18 foizni tashkil qilgan. Yoki kichik paxta sotib oluvchilar tomonidan berilib, yiliga 40 yoki undan ortiq foizni tashkil qilgan. Turkistonda paxtachilikni yaxshilash uchun tuzilgan har qanday dastur bitta ko'rsatmadan boshlanadi, ishni yaxshilash uchun keng ommaga qulay bo'lgan kichik kreditlardan foydalanish deya baholangan. Farg'ona paxtasi bu Amerika navining butunlay o'zgargan turi bo'lib, a'lo sifatli tolasi, bozordagi eng yuqori narx bilan ajralib turadi. Aholi juda zich joylashgan Farg'ona viloyatida paxtaga bo'lgan talabning yuqoriligi sabab paxta dalasida yollanib ishlovchilarning narxi boshqaviloyatlardagi yollanib ishlovchilarning narxidan yuqori bo'lgan. 1910 yilning yozida g'oz chopiq paytida Andijon uyezdida yollanma ishchiga

2 rubl 25 tiyin to'langan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida 1 rubl 50 tiyin to'langan. Farg'onaning yaxshi iqlim sharoiti, sariq tuprog'i, kerakli miqdorda sug'orilishi tufayli butun Turkiston bo'yicha paxta hosili son va sifati bo'yicha eng yuqori bo'lgan. 1909-1910 yillarda viloyat bo'yicha yillik hosil har desyatina yerga 80-90 pudni tashkil qilgan. Bir desyatina yer uchun 100 rubl va undan ortiq ijara to'langan va bu foydali hisoblangan. Qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalardan foydalangan mahalliy dehqonlar bir desyatina yerdan 100-160 pud paxta yetishtirishgan. 1910 yilda paxtaning narxi 4 rubl 30 tiyindan 4 rubl 80 tiyinchacha va hattoki 5 rublgacha ko'tarilgan.

Sentabr oyining birinchi haftasida paxta narxini pasaytirish uchun savdo firmalari 4 rubl 30 tiyindan 4 rubl 40 tiyinchacha ushlab turishgan. Lekin dehqonlar paxtani sotmaganidan keyin yana 4 rubl 60 tiyin, 4 rubl 80 tiyindan sotib olish boshladilar. Viloyatda 142 ta paxta tozalash zavodi bo'lib, tozalangan paxtaning bir pudi Moskvada 14 rubldan 17 rublgacha bo'lgan. Paxta chigiti yog' zavodlariga pudiga 60 tiyindan sotilgan. Yirik yog' zavodlari viloyatda 13 ta bo'lib, ularda 9 million pud chigit qayta ishlangan. Yog' mahsuloti Moskvaga olib ketilgan va chet elga bir pudini 4 rubl 20 tiyindan 7 rublgacha sotilgan. Paxta hosilidan katta daromad ko'rgan imperiya paxta navini tanlash va yangi navlarni yaratish ishlariga juda katta e'tibor bergan.

Bu o'rinda paxtaning tezpisharligiga, hosildorligiga, va tola sifatiga e'tibor berilgan. O'gitlar masalasida ham ko'p ishlar qilingan. Amerika paxtasining yangi navlari kolleksiyasi ustida tagribalar olib borilgan.



Triumf, Slava, Georgina, Georgiyu, Gol'f va boshqa navlar ko'saklar kattaligi, tola sifati bilan hayron qoldirgan. Paxtaning navlarini yanada yaxshilash maqsadida Farg'ona viloyatida ikkita, Namangan shahrida bitta navchilik plantatsiyasi tashkil qilingan. Turkiston matbuotida paxtachilik mavzusini yoritilishi asosan podsho ma'muriyatining manfaatlarini ifodalagan. Garchi paxta masalasi chor uchun suv va havodek muhim masala bo'lsada, mahalliy aholiga agronomik yordam deyarli ko'rsatilmagan. Aholi

o'zining ko'p yillik tagribasi asosida ish olib borgan. Paxtachilik sohasidagi barcha natijalar imperiya manfaatlariga xizmat qilgan. Yuqorida bildirilgan mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, Turkiston o'lkasida paxtachilik tarixini mustamlakachilik tizimida paxta xomashyosining tashib ketilishi borasidagi ma'lumotlarni o'rganishda arxiv hujjatlari bilan bir qatorda o'sha davr vaqtli matbuot organlaridagi ma'lumotlarni ham g'oyat muhim manba bo'lib hisoblanadi.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Brodovskiy .M. Sredneziatskiy xlopok, ego nedostatki i meri k ustraneniye ix // TV. -1874. -№4
2. Samolevskiy B.K voprosu ob uluchshenii kulturni xlopka v Turkestanskom kraye // TV. -1876. -№50
3. Brodovskiy .M. Sredneziatskiy xlopok, ego nedostatki i meri k ustraneniye ix // TV. -1874. -№4
4. Turkistonda paxtachilik // Turkiston viloyatining gazet. -1910. -№14.
5. Yuferov V. Xozyastvo sartov Ferganskoy oblasti .T., 1911 Turkestanskiy sbornik .T.576.s526.
6. Kokand: Voeno-statcheskiy sbornik. Vip. III. Ped red N. Obrucheve. Turkestanskiy sbornik. T.30s.133
7. Kostenko S.F. Turkestanskiy kray. TS. T.251.S.2
8. Xlopkovodstvo i pravitelstvenniye meropriyatiya po ego uluchainno i razvitiyu v sredneziatskiy vladeniya. Spb. 1911 // Turkestanskiy sbornik .T.565 s .2
9. Umarov A.I. Kulturnaya jizn Ferganskoy dolini. (kones XIX nach XXv). Avtoreferat Diss. kon. ins. nauk. Tashkent, 1985. -s112
10. Istoriya Andijan v dokumentax i materialax (1876-1917gg) Tom vtoroy. Sostaviteli: Shamsutdinov R.T, Hoshimov S.A, Bozorov. K. Tashkent, Sharq, 2012. S.230
11. Turkestanskiy sbornik. T.421.-c171
12. Turkestanskiy sbornik. T.421.-c171
13. Ziyoyev X. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskangasida (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlari) T. Sharq, 2006..101-b
14. Ziyoyev X. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskangasida (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlari) T. Sharq, 2006..171-b
15. Ziyoyev X. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskangasida (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlari) T. Sharq, 2006..104-105-b
16. Ziyoyev X. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskangasida (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlari) T. Sharq, 2006..108-b
17. Istoriya Andijan v dokumentax i materialax (1876-1917gg) Tom vtoroy. Sostaviteli: Shamsutdinov R.T, Hoshimov S.A, Bozorov .K. Tashkent, Sharq, 2012. S.230



18. Turkestanskiy vedomosti.-1909.-№17
19. K voprosu o narodnom kredite//Okraina -1896.-№65
20. K nashem chitatel'nykh//Turkestanskiy vedomosti.1910.-№216
21. O`zMDA,1-jamg`arma,2-ro`yxat,1314-ish,87-varaq
22. B.N.P Vistavka -yarmarka//Tashkentskiy kur`yer.1910.№4
23. Nash tovaroborot vSredney Azii//Turkestanskiy vedomosti.-1913.-№87
24. O Ekonomii voobshe i ekonomii na stroyusheysya.Andijanskoy doroga v osobennosti//Okraina.-1897.-№64
25. Istoriya Andijan v dokumentax i materialax (1876-1917gg)Tom vtoroy.Sostaviteli:Shamsutdinov R.T,Hoshimov S.A,Bozorov .K.Tashkent,Sharq,2012. S.239
26. G`o`zaning yangi navlari//Turkiston viloyatining gazetii.-1885.-№3